

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10846898>

Gaimnazarov Olimjon Gulmurodovich

Guliston Davlat Universiteti matematika kafedra mudiri

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)., dotsent - +998 972245600

Erkinov Xursandbek Baxtiyorovich

Guliston Davlat Universiteti doktoranti - xursandbek.erkinov@mail.ru

Annotatsiya: *O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish hozirgi kunda juda muhim ahamiyatga ega. Aynana kreativ fikrlashni rivojlantirishda PISA tadqiqotlarining masalalari bu borada juda yaxshi misol bo'la oladi.*

Kalit so'zlar: *Kreativ, innovatsiya, pedagog, ko'nikma va malaka, PISA, kognitiv*

АННОТАЦИЯ: *Развитие творческого мышления учащихся в наше время очень важно. Очень хорошим примером в этом плане могут служить вопросы исследования PISA по развитию творческого мышления.*

Ключевые слова: *Креативность, инновации, педагогика, навыки и компетентность, PISA, познавательный*

Abstract: *Developing creative thinking of students is very important nowadays. The issues of PISA research in the development of creative thinking can be a very good example in this regard.*

Keywords: *Creativity, innovation, pedagogy, skills and competence, PISA. Cognitive*

Kreativ fikrlash nima? Kreativ fikrlash — bu qimmatli va asl g'oyalarni yaratishga olib keladigan fikrlash yo'nalishidir. Barcha insonlar ijodiy fikrlash hamda «kundalik» ijodkorlik (kundalik muammolarga nostandart tarzda yechim topish) bilan shug'ullanishlari mumkin. Ijodiy fikrlash nafaqat ijodiy asarlarni yaratish yoki san'at bilan bog'liq tasavvur etish vaziyatlarida, balki muammolarni yoki ijtimoiy masalalarni hal qilish kabi boshqa sohalarda funktsional bo'lgan vazifalarda ham qo'llanilishi mumkin.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha bir qancha yo'l xaritalar ishlab chiqilgan. Shu maqsadda maktab o'quvchilarining bilim saviyasini baholash bo'yicha PISA xalqaro baholash dasturiga a'zo bo'ldik va 2022-yil maktab o'quvchilarimiz bu xalqaro baholashda birinchi marotaba ishtirok etishti. Xo'sh bu bizga nimalar beradi? Avvalo bizning dunyodagi o'rnimizni bilib olish va shu bo'yicha kamchiliklarimizni aniqlash, bu borada qilinadigan ishlarimizni belgilab olishdan iboratdir.

PISA baholash dasturi doirasida o'quvchilarning turli xil va o'ziga xos g'oyalarni yaratish qobiliyati, shuningdek, turli vaziyatlarda yoki «sohalarda» g'oyalarni baholashi va takomillashtirishi o'rganiladi. Baholash to'rtta sohani o'z ichiga oladi: yozma ifoda, vizual ifoda, ijtimoiy muammolarni hal qilish va ilmiy muammolarni hal qilish. Ushbu sohalarning

har birida o'quvchilar tomonidan bitta to'g'ri javobi bo'lmagan ochiq topshiriqlarni bajaradilar. Ulardan alohida bir nechta javoblarni taqdim etishlari yoki oddiy bo'lmagan javob yaratishlari so'raladi. Ushbu javoblar ijodiy matn yoki vizual tasvir shaklida muammoning yechimi bo'lishi mumkin. Nima uchun o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish muhim hisoblanadi? Kreativ fikrlash o'quvchilarning tajribalarini, harakatlarini, voqealarni yangi va shaxsan mazmunli talqin qilishlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning ilmiy qiziqishi va yutuqlariga, o'z-o'zini anglashi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sinfdan tashqari, ijodiy fikrlash o'quvchilarga doimiy va tez o'zgaruvchan dunyoga moslashishga yordam beradi. O'quvchilarning ijodiy fikrlashlarini qo'llab-quvvatlash ularga o'zlari yashayotgan jamiyatning bugungi va kelajakdagi ishchilari sifatida rivojlanishiga hissa qo'shishga yordam beradi: dunyodagi turli tashkilotlar va jamiyatlar yuzaga kelayotgan murakkab muammolarni hal qilish uchun innovatsiyalar va bilimlarni yaratishga tobora ko'proq tayanib, jamoaviy uyushma sifatida innovatsiyalar va ijodiy fikrlashga ahamiyat bermoqda. Shuni takidlash joizki, kreativ fikrlashni baholash tizimida sohalar qancha ko'p kiritilsa, qamrab olinayotgan tushincha ham yetarlicha bo'ladi. Mana shunday holatda ham, PISA tadqiqotlariga qo'yiladigan amaliy va mantiqiy cheklovlar PISA 2022 o'quvchilarning fikrlashini baholashda asosiy rol o'ynaydi. Birinchi cheklov tadqiqotda nazarda tutilgan 15 yoshli o'quvchilar cheklangan darajadagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lsada, baholash uchun tanlangan mashg'ulotlar dunyoning ko'p sonli o'quvchilari egallashi mumkin bo'lgan bilim va ko'nikmalarga tayangan bo'lishi shart. Ikkinchi cheklov test ishlash vaqti me'yorlangan. O'quvchilar PISA baholash talabidan kelib chiqqan holda bir soatga mo'ljallangan kreativ teslarni ishlashi kerak. PISA tadqiqotlari faqat bitta o'quvchini emas xalqaro miqyosdagi o'quvchilarni baholashga mo'ljallanganligi sababli, ularga har xil mavzudagi turli topshiriqli testlar takroran ham beriladi. Uchinchi cheklov esa PISA baholash dasturi standartida kreativ fikrlashni tekshiruvchi testlardan foydalanish shart. Bu teslar internetga ulanmagan monitori sensorli bo'lmagan kompyuterlarda tekshiriladi. Bu cheklovlarni hisobga olgan holda, PISA 2022 o'quvchilarning kreativ fikrlashini baholash dasturi ikkita tematik mazmun sohasini ichiga oladi, ular quyidagilar: "kreativ ifoda, bilib hosil qilish va muammoni kreativ hal qilish". Baholashning to'rt faoliyat sohasi 15 yoshdagi o'quvchilarning o'zlashtiradigan kreativ fikrlash topshiriqlarini ichiga oladi va real dunyo to'g'risidagi tasavvurni yoki kreativ fikrlashni ko'rsatib beradi.

Yozma ifodalash : maktab va maktabdan tashqari muhitda yozma ifodalash kreativ ifodalashning tabiiy usulidir. Bu orqali o'quvchilarda kognitiv, nutq, muloqat qila olish va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi. Haqiqiy kreativ yozuvchi yozgan yozma ifoda tushinishga oson, tavsilotga boy va eng muhimi mantiqiy bog'liqlikka tayanadi. Kitobxonidan esa tasavvur qilish va tushinishgina talab etiladi. Yozma ifodani yaratayotgan yozuvchi yozuvda kechayotgan voqea jarayonlarning mazmun mohiyatiga hattoki o'zgaralar kechinmalari va matnlariga javobgar bo'ladi. Kreativ yozuvchi yaratgan kreativ yozmalar orqali kitobxon borliqni anglash umumiy qilib aytganda, hissiy va intellektual qobiliyatlarga

ega bo'ldi. Yozma kreativlik o'quvchiga hayotni to'laligicha anglash, hamda ijtimoiy muhit bilan muloqat qilish kabi yutuqlarni beradi.

XULOSA

Maktab o'quvchilarini hayotiy ko'nikmalarini shakillantirishda PISA tadqiqotlari juda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan bunday xalqaro tadqiqotlar o'quvchilarimiz bilim sifatini oshirishda qo'shimcha yordam bo'ldi. Ushbu maqolada asosan PISA tadqiqotlaining ahamiyati haqida so'z boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shernazarov I.E. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini xalqaro baholash dasturi PISA tadqiqotiga tayyorlashdagi vazifalar va ularning yechimlari / Konferentsiya materiallari,

2. Ergasheva M.T. FunkSIONAL savodxonlikni baholashning dastlabki natijalari / Konferentsiya materiallari,

3. Kuysinov O.A., Nosirov A., Abduraimov Sh., Sodikova A., Kutlimuratov K., Mamajonova K. New Uzbekistan – The value of Membership in the Continuous Education System. "International journal of special education" Scopus Journal. <https://www.internationaljournalofspecialeducation.com/submission/index.php/ijse/article/view/515> ISSN No:0827-3383 VOLUME 37, №3. – 2022.

4. Kivirauma J., Kari R. Excellence through special education? Lessons from the Finnish school reform. International review of education 53, 2007. – P. 283-302.

INTERNET SAYTLARI:

5. <https://uz.wikipedia.org>

6. <https://kun.uz>

7. <https://www.gazeta.uz>